



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

Sport faoliyati o'smir shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Yengil atletika bilan shug'ullanish: irodaviy sifatlarni; emotsional barqarorlikni; kommunikativ qobiliyatlarni; maqsadga intilish hissini rivojlantiradi. Shuningdek, sport bilan shug'ullanuvchi o'smirlar odatda: faolroq; tashabbuskorroq; o'ziga ishonganroq bo'ladilar. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yengil atletika bilan shug'ullanish o'smirlarda o'z-o'zini baholash xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Sport faoliyati davomida o'smirlarda o'ziga ishonch, qat'iyatlilik, mustaqillik va maqsadga intilish kabi sifatlar rivojlanadi. Mashg'ulot va musobaqalarda ishtirok etish sportchilarning o'z imkoniyatlarini real baholashiga hamda ijobiy "Men" konsepsiyasini shakllantirishiga yordam beradi. Murabbiy va ota-onaning qo'llab-quvvatlashi esa ushbu jarayon samaradorligini oshiradi. Shu sababli sport mashg'ulotlarini tashkil etishda psixologik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Sport psixologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2019.
3. Nurimuhamedov K. Yosh sportchilar psixologiyasi. – Toshkent, 2021.
4. Il'in E.P. Psixologiya sporta. – Moskva, 2018.
5. Puni A.S. Sport psixologiyasi nazariyasi. – Sankt-Peterburg, 2017.
6. Matveyev L.P. Sport mashg'ulotlari nazariyasi. – Moskva, 2019.
7. Xasanboyev O. Jismoniy tarbiya pedagogikasi. – Toshkent, 2022.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DIQQATINI SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali
Psixologiya fakulteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Toshmuradova Dilobar Farhod qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali
Psixologiya fakulteti Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatning shakllanish xususiyatlari, uning psixologik mohiyati va ta'lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, diqqatning turlari, yoshga xos rivojlanish bosqichlari, diqqatni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda uni rivojlantirishning samarali pedagogik usullari yoritilgan. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati hali barqaror emasligi, ularning ko'proq qiziqish va emotsional ta'sirlarga bog'liqligi aniqlangan. Maqolada o'qituvchi va ota-onaning diqqat rivojlanishidagi o'rni ham ochib berilgan. Bundan tashqari, diqqatni

rivojlantirish uchun zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'z: Diqqat, boshlang'ich ta'lim, psixologik rivojlanish, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, bilish jarayonlari, pedagogik metodlar, o'quv faoliyati.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimiga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyat har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, bilimli va ijodkor shaxslarni tarbiyalashni talab qiladi. Bunday vazifani amalga oshirish esa avvalo boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlanadi. Chunki bolaning keyingi psixologik va intellektual rivojlanishi aynan boshlang'ich sinf davrida shakllanadi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda bilish jarayonlari — idrok, tafakkur, xotira va diqqat faol rivojlanadi. Ushbu jarayonlar ichida diqqat alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi diqqat barcha psixik faoliyatning markazida turadi va boshqa bilish jarayonlarining samarali amalga oshishini ta'minlaydi.

Agar bolaning diqqati yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, u dars jarayonida ma'lumotlarni to'liq qabul qila olmaydi, topshiriqlarni bajarishda qiynaladi va o'quv faoliyatida sustkashlik kuzatiladi. Diqqat inson ongining ma'lum bir obyektga yo'naltirilishi va unda jamlanishidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatning shakllanishi murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan jarayon hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalar ko'proq ixtiyorsiz diqqatga ega bo'lib, yorqin, qiziqarli va emotsional ta'sir qiluvchi narsalarga tez e'tibor qaratadilar. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisidan yuqori pedagogik mahorat talab etiladi.

Hozirgi kunda ko'plab boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatning tarqoqligi, tez chalg'ish va uzoq muddat davomida bir faoliyatga e'tibor qarata olmaslik holatlari kuzatilmoqda. Bunga zamonaviy texnologiyalar, telefon va internetdan ortiqcha foydalanish, noto'g'ri kun tartibi va psixologik omillar sabab bo'lmoqda. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatning shakllanish xususiyatlarini o'rganish, uning rivojlanish omillarini tahlil qilish hamda diqqatni rivojlantirishning samarali usullarini yoritishdan iborat.

Birinchi sinf davrida diqqat hali yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Ular uzoq vaqt davomida bir joyda o'tira olmaydi va tez chalg'iydi. Bu davrda o'yin faoliyati ustunlik qiladi; emotsional ta'sirlar kuchli bo'ladi; ko'rgazmali vositalarga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Ikkinchi va uchinchi sinf davrida bolalarda ixtiyoriy diqqat asta-sekin shakllana boshlaydi. Ular o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga harakat qiladilar. Shuningdek diqqatning barqarorligi ortadi; darsga mas'uliyat hissi shakllanadi; mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. To'rtinchi sinfga kelib o'quvchilarda diqqatning nisbatan barqaror shakli yuzaga keladi. Ular bir faoliyatga uzoqroq vaqt davomida e'tibor qarata oladilar.

Oila muhiti oiladagi sog'lom psixologik muhit bolaning diqqati rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning mehribonligi, qo'llab-quvvatlashi va bolaga e'tiborli bo'lishi diqqatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim muhiti sinf xonasining yorug'ligi, tozaligi va qulayligi ham diqqatga ta'sir qiladi. Shovqinli va tartibsiz muhit bolaning diqqati tez chalg'ishiga olib keladi. O'qituvchining pedagogik mahorati boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsni qiziqarli

tashkil eta olsa, o'quvchilarning diqqati uzoq vaqt davomida saqlanadi. Buning uchun: interfaol metodlardan foydalanish; ko'rgazmali vositalarni qo'llash; o'yin elementlarini kiritish katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarova. B. M., Norbekova B. SH. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi Toshkent: „Bayoz“ nashriyoti 2023-yil.
2. Z. T. Nishonova, N. G. Kamilova, D. U. Abdullayeva, M. Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent: „O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati“ nashriyoti, 2018-yil.
3. G'oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2018.
5. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 2017.
6. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2020.

IJTIMOIIY TARMOQLARNING O'SMIRLAR EMOTSIONAL INTELLEKTIGA TA'SIRI

Sharafitdinov Abdulla XXX

O'zMU Jizzax filiali Psixologiya kafedrasi dotsenti

abdula_sharafitdinov@gmail.com

Qurbonboyev Miraziz Zulhaydar o'g'li

O'zMU Jizzax filiali Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

qurbonboyevmiraziz1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar emotsional intellektiga ta'siri, ularning shaxslararo munosabatlari, psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuv jarayonidagi roli keng yoritilgan. Virtual muhitda emotsional ifodalanish, ijtimoiy taqqoslash, kiberbulling, onlayn muloqot va raqamli identifikatsiyaning o'smir psixologiyasiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, emotsional intellekt, o'smirlik davri, shaxslararo munosabat, kiberbulling, virtual muloqot, psixologik ta'sir, ijtimoiy media.

O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab psixologik bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda shaxsning emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishi faol kechadi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular kundalik muloqot, axborot almashinuvi va o'zini ifodalash vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Emotsional intellekt - bu shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish va ijtimoiy vaziyatlarga mos javob qaytarish qobiliyatidir. Ijtimoiy tarmoqlar ushbu jarayonga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda, chunki ular emotsional ifodalanishning yangi virtual shaklini yaratgan.

Bugungi kunda o'smirlar ijtimoiy tarmoqlardan juda faol foydalanmoqda. Internet va smartfonlarning keng tarqalishi natijasida yoshlar kunining katta qismini Telegram, Instagram, TikTok va YouTube kabi platformalarda o'tkazmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar uchun nafaqat muloqot vositasi, balki ko'ngilochar va ta'limiy